



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 IYUN
№29**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
29-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
29-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 29-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 33 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Abdivayitov Muhammad Abdimo'min o'g'li	
SUG'ORILADIGAN YERLARDA SUVLARNING SARFLANISH MASALALARI	
(MIRZACHO'L MISOLIDA).....	7



ГЕОГРАФИЯ

SUG'ORILADIGAN YERLARDA SUVLARNING SARFLANISH MASALALARI (MIRZACHO'L MISOLIDA)

Abdivayitov Muhammad Abdimo'min o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Telefon: 91-338-39-55

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridan o'tuvchi daryolar va ularning shakllanish bosqichlari, irmoq va quyilish joylari haqida malumotlar berilgan. Shuningdek maqolada Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborining parametrlari, qurilishi, uni quruvchi tashkilotlar, suv omborida yuzaga kelgan toshqin va uning oqibatlarini bo'yicha malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Sirdaryo, Sangzor, Jizzax, Zarafshon, daryo, suv ombori, Nurota, GES, suv toshqini, evakuatsiya.

Jizzax viloyatida teskari yo'nalishda oqishi bilan ko'pchilikni hayratga soladigan Sangzor daryosi mavjuddir. Zarafshon daryosi bundan 2300-2400-yil ilgarigi tarixiy manbalarda „Politemit“ „ya'ni o'zidan zar oqizuvchi deb atalgan. Daryoning shakllanishi bundan million yillar avvalgi eng qadimgi galaksen davri bilan o'lchanadi. O'sha davrda Sangzor daryosi Zarafshonning o'ng qo'l irmog'i sifatida Chumqartovdan, ya'ni Baxmal tog'laridan boshlanib, shimoli-g'arbga hozirgi Samarqand va Jizzax viloyatlari chegarasidagi „Yuqori nuqta“ dan qariyb 10 kilometr janubdan Zarafshonga borib quyilgan.

Yerning zilzilalar natijasida o'sishi „Apokalipsis hodisasi“ deyiladi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bundan million yillar avvalgi ana shunday hodisa natijasida yer sathining reliefi o'zgarib ketgan. Bu hodisa Zarafshonning o'ng irmog'i bo'lgan Sangzorning o'zaniga ham ta'sir ko'rsatgan. Yerning tuzilishi o'zgarib, qiyalik chapga og'ganidan keyin Sangzor orqaga qarab oqa boshlaydi. Natijada Baxmal qishlog'idan shimolga qarab Nurota tog'igacha, g'arbdan Bulung'ur atrofigacha katta ko'l paydo bo'ladi. Vaqt o'tib, suv ko'paygani sayin uning bosimi ham kuchayib boradi. Natijada Nurota va Molguzar tizmalari tutashgan eng kuchsiz, ensiz joyidan suv sizib o'tib dastlab sharq tomonga qarab oqa boshlaydi. Yig'ilgan suv bosimi ostida tog' tizmasining yemirilishidan Temir darvozaning o'rni paydo bo'ladi. Sekin-asta ikki tog' o'rtasida dara shakllanib, undan oqayotgan suv to'g'ri Sirdaryoga borib quyilgan. Yillar o'tib daryo o'zanini o'zgartirgan va shimol tomonga teskari oqa boshlagan.

Sangzor daryosi Jizzax viloyatidagi daryodir. Turkiston tog' tizmasidagi Guralash dovoni yaqinida 3400 metr balandlikdagi buloqlardan va Jizzax shahridan 70 kilometr shimoli-g'arbda, Qizilqum cho'lining janubi sharqiy chekkasidagi Tuzkon ko'liga quyiladi. Uzunligi 198 kilometr, havzasining maydoni 3220 km.kv (tog'li qismi). Bosh qismi Guralashsoy nomi bilan ataladi. Kichik Qorashaqshaq qishlog'i yonida Jontekasoy qo'shilgandan so'ng u Sangzor nomini oladi. Uning o'rtacha ko'p yillik suvi 4 km/sek. Sangzorda 80 dan ortiq soy va jilg'alar (Xo'jasoy, Boysung'irsoy, Ko'kjarsoy, Oqqo'rg'onsoy, Tangatopdisoy, Sutariq, Baxmazararsoy, Navqasoy va boshqalar) qo'shiladi. Sardoba suv ombori - O'zbekistonning Sirdaryo viloyatida barpo etilgan suv ombori. 2017-yil Janubiy Mirzacho'l kanalining markaziy tarmog'i oqib o'tgan hududda qurilgan. Suv sig'imi 930 million m³, chuqurligi 28,8 m, to'g'on balandligi 28 m dir. Suv omborining qurilishi 2010-yil boshlanib, 2017-yil yakunlandi. Uni qurishdan maqsad Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining unumdor yerlaridan foydalanib, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish bo'lgan. Suv ombori atrofida dam olish hududi tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Suv ombori qurilishida „Sirdaryo suv qurilish invest“ DUK (Suv xo'jaligi vazirligi) buyurtmachi, „O'zbekiston temir yo'llari“ga qarashli „O'ztemiryo'lqurilishmontaj“ korxonasi bosh pudratchi, „UzGip“ MCHJ bosh loyihachi, 10 dan ortiq kompaniyalar subpudratchi bo'ldi. Suv omboridan foydalanish „O'zbekiston temir yo'llari“ AJga qarashli „Sardoba suv ombori obyektlaridan foydalanish va rivojlantirish



direksiyasi“ga topshirildi. Sardoba suv omborining qiymati 1,3 trillion so‘m (404 million AQSh dollari)ni tashkil etdi. 2020-yil 1-may kuni ombor o‘pirilib, O‘zbekistonning Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlari va Qozog‘istonning Paxtaorol tumanidagi o‘nlab aholi punktini suv bosdi.

GES loyihasi. 2020-yil 21-aprelda „O‘zbekgidroenergo“ AJ tomonidan Sardoba suv ombori atrofida GES qurilishi boshlandi. Qiymati 21,3 million yevroga teng bo‘lgan GES qurilishi 2023-yilda qurib bitkazilishi rejalashtirilgandi. Qurilish Rossiyaning „Roseksimbank“i tomonidan moliyalashtirilishi belgilangan. Rossiya tomonidan bosh pudratchi „Силовые машины – ЗТЛ, ЛМЗ, Электросила, Энергомашэкспорт“ kompaniyasi bo‘lib, u bilan 19,2 million yevro ekvivalentiga teng shartnoma imzolandi. Loyihaga ko‘ra GESning umumiy quvvati 10,7 MVt.ga teng bo‘lib, unga 5,35 MVt.dan iborat ikkita gidroagregat o‘rnatilishi belgilandi. GESning yillik tok ishlab chiqarish quvvati 41,1 million KVt. soatga teng bo‘lishi kerak edi.

Suv toshqini. 2020-yil 1-may soat 05:55 da suv ombori to‘g‘onining 6-piket devoridan suv sizib chiqqa boshladi, suv oqimi tobora kuchayib bordi. Oqibatda



Sardoba suv omborida yuz bergan halokat oqibatida suv bosgan hududlar xaritasi

Qo‘rg‘ontepa qishlog‘i suv ostida qoldi. Qo‘rg‘ontepa aholisi „Birlik“ mahallasiga evakuatsiya qilindi. „Qo‘rg‘ontepa“, „Do‘stlik“, „Yurtdosh“, „Navbahor“, „Haqiqat“, „Bahoriston“ mahallalarini suv bosgan va bu yerning aholisi ham evakuatsiya qilindi. Bundan tashqari Oqoltin tumanidagi „Ahillik“, „Shodlik“, „Saxovat“, „Navoiy“, „Do‘stlik“, „Ko‘rkamdiyor“, „Toshkent“, „Yangihayot“, „Obod“, „Mustahkam“ mahallalari aholisi Jizzax viloyatining Gagarin shahriga ko‘chirildi. Mirzaobod tumanining „Beruniy“, „Paxtaobod“, „Baliqchi“, „Haqiqat“, „Bahoriston“, „Yangiovul“, „Do‘ngariq“ mahallalari aholisi Yangiyer shahriga ko‘chirildi. Ombordan toshgan suv oqimi Oqoltin tumanidan oqib o‘tuvchi Abay kanaliga oqizilib, Arnasoy ko‘llariga yo‘naltirildi. Sardoba qishlog‘i aholisi ham Gagarin shahriga ko‘chirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra toshqinning birinchi kunida 11598 kishi evakuatsiya qilindi. 2-may kuni 60 450 kishi xavfsiz joyga ko‘chirildi. Toshqin oqibatida 4 kishi vafot etdi, 1 kishi bedarak yo‘qoldi.

Sardoba halokati bo‘yicha jinoiy ish ochildi. 19-may kuni jinoiy ishga aloqador 2 kishi «mansabga sovuqqonlik bilan qarash» va «tog‘-kon, qurilish qoidalarini buzish»da gumonlanib, hibsga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Президент Сирдарё вилоятида бўлди (<https://president.uz/uz/lists/view/514>).<https://president.uz>. 2017-yil 17-may.
2. Газета.uz. Сардоба сув омборини ким қурган? (<https://www.gazeta.uz/uz/2020/05/05/reservoir>).<https://www.gazeta.uz>. 2020-yil 5-may.
3. «Sardoba» suv ombori to‘g‘oni o‘pirilishi bo‘yicha 9 nafar shaxs qamoqqa olindi — Bosh prokuratura (<https://www.uzreport.news/society/sardoba-suv-ombori-togoni-o-pirilishi-va-uning-oqibatlari-boyicha-olib-borilgan-tergov-hara>).<https://www.uzreport.news>. 2020-yil 27-iyul.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000